

O'zbekiston – Belarus: O'zaro hamkorlikni rivojlantirish uchun amaliy harakatlar davri



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko 12 sentyabr kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 13 sentyabr kuni Ko'ksaroy qarorgohida bo'lib o'tdi.

Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng Shavkat Mirziyoyev va Aleksandr Lukashenko tor doirada uchrashuv o'tkazdi.

Prezidentimiz oliy martabali mehmonni yurtimizga tashrifi bilan qutlab, O'zbekiston va Belarus samimiy do'st va ishonchli sherik ekanini ta'kidladi.

– 2016 yili Samarqanddagi uchrashuvimizda davlatlararo munosabatlarni har tomonlama mustahkamlashga kelishib olgan edik. O'tgan ikki yilda hamkorligimiz jadal sur'atda rivojlandi. 2017 yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 60 foizdan ziyod o'sdi. Joriy yil yanvar – iyul oylarida esa bu boradagi ko'rsatkich qariyb 4 barobar oshdi. Bu hamkorligimizda katta salohiyat mavjudligidan dalolat beradi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Belarus Prezidenti taklif uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

– Sizning rahbarligingizda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar tahsinga sazovor, – dedi Aleksandr Lukashenko. – Ham ichki, ham tashqi siyosatda keng miqyosli o'zgarishlarni amalga oshirmoqdasiz. O'zaro manfaatli barcha sohalarda hamkorlik qilishga, tajriba almashishga tayyormiz.

Bugungi kunda O'zbekiston bilan Belarus o'rtasidagi munosabatlar do'stlik va sheriklik ruhida rivojlanmoqda. O'tgan yillar davomida mamlakatlarimiz ikki va ko'p tomonlama asosda mustahkam hamkorlik aloqalarini o'rnatdi. Xalqlarimizning do'stligi va yaqinligi o'zaro munosabatlarni yanada rivojlantirish va mamlakatlarimizning turli xalqaro tuzilmalar doirasida bir-birini qo'llab-quvvatlashiga mustahkam asos bo'lmoqda.

Prezidentlar ikki tomonlama hamkorlikka doir keng ko'lamlı masalalarni muhokama qilib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi siyosiy muloqotni mustahkamlashga, turli sohalardagi amaliy hamkorlikni izchil rivojlantirishga kelishib oldilar.

Rasmiy delegatsiyalar ishtirokida kengaytirilgan tarkibda o'tkazilgan muzokarada

O'zbekiston bilan Belarus o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni diversifikatsiya qilish va yanada kengaytirish, ikki mamlakat iqtisodiyotining bir-birini to'ldirishini hisobga olgan holda, sheriklikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Belarus Prezidenti ushbu tashrif mamlakatlarimizning hamkorlikka intilishi mushtarakligidan, har ikki tomon uzoq istiqbolga mo'ljallangan o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlashdan manfaatdor ekanidan dalolat berishini qayd etdi.

Joriy yil avgust oyida Toshkentda Ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya majlisi muvaffaqiyatli o'tdi.

Mashinasozlik, farmatsevtika, yengil va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi, turizm kabi sohalarda qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Ishbilarmon doiralar va yetakchi korxonalar o'rtasida aloqalar mustahkamlanmoqda.

Keyingi ikki oyda mamlakatimizning barcha hududlari vakillari Belarusga tashrif buyurib, o'z hamkorlari bilan yaqin aloqalar o'rnatdi.

Tomonlar savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalarni rivojlantirish istiqbollari yuzasidan fikr almashdi.

Prezidentlar amaliy hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdorligini, buning uchun intellektual, texnologik va boshqa resurslar, shuningdek, eng muhimi, o'zaro intilish mavjudligini ta'kidladilar.

Ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya zimmasiga o'zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish va yaqin yillarda uni bir milliard dollarga yetkazish vazifasi topshirildi.

Hududlararo aloqalarni yanada kengaytirish, mashinasozlik, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati, chorvachilik, meva-sabzavotni qayta ishlash, farmatsevtika, qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa tarmoqlarda kooperatsiyani rivojlantirishga kelishib olindi. Qo'shma korxonalar tashkil etish, ular ishlab chiqargan mahsulotlarni uchinchi mamlakatlar bozoriga eksport qilish zarurligi ta'kidlandi.

O'zbekistonda atom elektr stansiyasi qurish loyahasini amalga oshirishda hamkorlik masalasi ko'rib chiqildi.

Tomonlar madaniy-gumanitar sohadagi sheriklik munosabatlarini bundan buyon ham mustahkamlashga kelishib oldilar.

Muzokara yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Belarus

Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko Qo'shma bayonotni imzoladilar.

Tashrif doirasida 19 hujjat, jumladan, o'zaro savdoga ko'maklashish tizimi, sanoat mulkini muhofaza qilish, bojxona ishlarida o'zaro yordam to'g'risida, fan va texnologiyalar, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, tibbiyot, oliy ta'lim, madaniyat va boshqa sohalarda hamkorlik to'g'risida bitim va shartnomalar imzolandi.

Ular orasida 2019-2023 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo shartnoma va uni amalga oshirish dasturi alohida ahamiyatga ega.

Tashrif doirasida o'tgan ishbilarmonlar va hududlararo hamkorlik forumida umumiy qiymati 230 million dollardan ortiq bo'lgan shartnoma va bitimlar imzolangani ta'kidlandi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda davlat rahbarlari muzokaralar ochiq va o'zaro ishonch ruhida o'tgani, uning natijalari yanada mustahkam va keng ko'lamlil bo'lishini qayd etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Belarus Prezidentining so'nggi 24 yilda mamlakatimizga ilk rasmiy tashrifi tom ma'noda tarixiy bo'lgani, o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirishga kuchli sur'at bag'ishlab, uni sifat jihatidan yangi, yanada yuksak bosqichga olib chiqishini ta'kidladi.

Belarus Prezidenti ushbu tashrifmamlakatlarimizning hamkorlikka intilishi mushtarakligi, uzoq istiqbolga mo'ljallangan o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlashdan manfaatdor ekanidan dalolat berishini qayd etdi.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Aleksandr Lukashenko "O'zbekspomarkaz"da ochilgan "Belarusda ishlab chiqarilgan" ko'rgazmasiga tashrif buyurdilar.

Ko'rgazmada Belarusning 150 dan ortiq korxonasi o'z mahsulot va xizmatlari bilan qatnashmoqda. Ular o'z mamlakatining qishloq xo'jaligi mashinasozligi, metallurgiya, kimyo sanoati, maishiy texnika, oziq-ovqat, to'qimachilik, tibbiyot, ta'lim va boshqa sohalardagi yutuqlarini namoyish etmoqda.

Aleksandr Lukashenko Prezidentimizga Belarus iqtisodiyoti, uning asosiy tarmoqlari salohiyati haqida so'zlab berdi.

Shavkat Mirziyoyev Belarus korxonalari vakillari bilan suhbatlashdi. Mutasaddilarga sanoat korxonalari va hududlar o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish va kengaytirish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berdi.

Davlat rahbarlari yuqori texnologiyalar sohasidagi sheriklikni kengaytirish, jumladan, ikki mamlakatning innovatsion markazlari va texnoparklari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda birgalikda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish muhimligini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Aleksandr Lukashenko Toshkent qishloq xo'jaligi texnikasi zavodi hududida tashkil etilgan "Amkodor-Agrotexmash" qo'shma korxonasining ochilishida ishtirok etdi.

Umumiy qiymati 33 million dollar bo'lgan mazkur loyiha 2018-2021 yillarda amalga oshiriladi. Bugun rasman ishga tushirilgan birinchi bosqichda qurilish va qishloq xo'jaligida foydalaniladigan 12 turdagi ekskavatorlar ishlab chiqariladi. Mahalliyashtirish darajasi 2019 yilda 22 foizga, 2021 yilda kamida 50 foizga yetkaziladi.

Davlatimiz rahbari mahsulot turini ko'paytirish va mahalliyashtirish darajasini oshirish zarurligini ta'kidladi. O'zbekistonning geografik joylashuvi qishloq xo'jaligi texnikalarini mintaqamiz mamlakatlari yetkazib berish uchun qulay ekanini qayd etdi.

Shu yerda qo'shma korxonada ishlab chiqarilgan dastlabki ekskavatorlar namoyish etildi.

O'ZA